



TA'LIM VA FAN SOHASIDA KASBIY
MALAKALARNI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA
TARMOQ KENGASHI

KASBIY STANDART

OLIV TA'LIM TASHKILOTI PSIXOLOGI



“Oliy ta’lim tashkiloti psixologi” kasbiy standarti 2025-yil 18-dekabrdagi Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo’yicha Respublika kengashi majlisining 114-son bayoni bilan tasdiqlangan “Kasbiy standart shakli” hamda Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktorining 2025-yil 19-dekabrdagi 55-son buyrug’i bilan tasdiqlangan “Kasbiy standartlarni ishlab chiqish va yangilash metodologiyasi”ga muvofiq, Ta’lim va fan sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo’yicha tarmoq kengashi tomonidan ishlab chiqilgan.

KASBIY STANDART

Oliy ta'lim tashkiloti psixologi

Reyestr raqami:

UZ-KS-2026-T1.0-0156



I. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanilish sohasi: Ushbu kasbiy standart "Pedagog-psixolog", "Ta'lim sohasi psixologi", kasblari bo'yicha xodimlarga malaka talablarini belgilash, ularning malakasini mustaqil baholash, ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, shuningdek, tashkilotlarda inson resurslarini boshqarish sohasi va boshqa faoliyat yo'nalishlarida keng turda qo'llaniladi.

2. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

davlat ta'lim standartlari – davlat tomonidan ta'limning mazmuni va sifatiga nisbatan belgilanadigan talablar majmui;

davlat ta'lim talablari – ta'limning tuzilmasiga, mazmuniga va uni amalga oshirish shart-sharoitlariga, shuningdek, ta'lim oluvchilarning jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy hamda kasbiy sifatlariga qo'yiladigan majburiy talablar;

guruh – Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (IFUT (2.1-tahrir) bo'yicha iqtisodiy faoliyatning keng sohasini o'z ichiga olgan faoliyat turi;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

kompetensiya – shaxsning mehnat vazifani to'liq, to'g'ri va sifatli bajarish uchun egallangan bilim, mahorat va amaliy tajribalarini turli sharoitlarda qo'llay olish qobiliyati;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

mahorat – biror masala (mantiqiy, hissiy, ijodiy va amaliy tafakkurni qo'llash)ni hal etish va faoliyatni amalga oshirish maqsadida bilimlarini qo'llash va kompetentligini namoyish etish qobiliyati;

mutaxassislik – malaka berish bilan yakunlanadigan muayyan kasbiy tayyorgarlik turining nomi;

nodavlat ta'lim tashkiloti – davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini amalga oshirish huquqini beradigan litsenziya asosida yoki xabardor qilish tartibida ta'lim xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxs;

norasmiy ta'lim – ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'limga qo'shimcha va (yoki) uning muqobil shakli;

pedagog – ta'lim va tarbiya sohasida kasbiy faoliyatni amalga oshiruvchi hamda tegishli ma'lumotga, kasbiy tayyorgarlikka va ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan jismoniy shaxs;

pedagogik faoliyat – ta'lim berish, tarbiyalash, baholash va rivojlantirishga qaratilgan professional faoliyat;

tajriba – mehnat faoliyatini amalga oshirish jarayonida egallanadigan bilimlar va mahoratlar;

ta'lim – ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

ta'lim kampusi – yagona hududda birlashtirilgan o'quv binolarini, ilmiy-tadqiqot institutlarini (markazlarini), ishlab chiqarish majmualari va texnoparklarni, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining vaqtincha yashash joylarini, laboratoriyalarini, axborot-resurs markazlarini (kutubxonalarni), sport inshootlarini, umumiy ovqatlanish obyektlarini o'z ichiga olgan binolar hamda inshootlar majmuidan iborat bo'lgan, o'quv jarayoni, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning yuqori samaradorligini ta'minlaydigan ta'lim-tarbiya muhiti;

ta'lim tashkilotlari attestatsiyasi – ta'lim tashkilotlarining faoliyatini baholash, davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari hamda o'quv dasturlariga muvofiq kadrlar tayyorlash mazmuni, darajasi va sifatini aniqlash bo'yicha davlat nazoratining asosiy shakli;

ta'lim tarbiya jarayoni ishtirokchilari – ta'lim oluvchilar, voyaga yetmagan ta'lim oluvchilarning ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillari, pedagog xodimlar va ularning vakillari;

tarbiya – aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

tarbiyaviy ish – talabalar shaxsini shakllantirish va ijtimoiy moslashuviga yo'naltirilgan faoliyat;

o'quv metodik majmua – darslik, mashq daftari, o'qituvchi uchun metodik qo'llanma, darsliklarning multimediali ilovadan iborat majmua.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 29-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida" O'RQ -637-son qonuni;

O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 1-fevraldagi "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi O'RQ-901-son qonuni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrdagi "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-158-son farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 5-yanvardagi "Davlat ta'lim standartlari to'g'risida"gi 5-son qarori bilan tasdiqlangan nizom;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 16-oktabrdagi "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 400-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 16-avgustdagi "Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 343-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 7-avgustdagi "Ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi 173-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 6-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi to'g'risida"gi 200-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 2-martdagi "Magistratura to'g'risida"gi 36-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi "Davlat ta'lim muassasalari hamda nodavlat ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida nizomni tasdiqlash haqida"gi 470-son qarori;

Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi — O'zMSt 640:2025 (IFUT-2.1);

Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori — O'zMSt 641:2025 (MMK-2025).

3. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi qisqartirishlar qo'llaniladi:

IFUT – iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi;

II. Kasbiy standartning pasporti

1.	Kasbiy standartning nomi:	Oliy ta'lim tashkiloti psixologi	
2.	Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi:	Oliy ta'lim tashkilotlarida pedagogik faoliyatni amalga oshirish va ta'lim tashkilotlari (ta'lim beruvchi tashkilotlar) tomonidan asosiy oliy ta'lim dasturlari uchun ta'lim xizmatlarini ko'rsatish	
3.	IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf:	Q Seksiyasi: Ta'lim 85 Ta'lim 85.4 Oliy ta'lim 85.40 Oliy ta'lim 85.40.0 Oliy ta'lim	
4.	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni:	O'qitish va ta'lim-tarbiya jarayonini zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalar asosida tashkil etish, fan bo'yicha chuqur nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lish, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyat olib borish, talabalarning mustaqil fikrlash va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ta'lim sifatini baholash va doimiy oshirib borish, kasbiy etika, akademik halollik va me'yoriy hujjatlarga rioya qilish	
5.	Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi:	Kasblar kodi va nomi:	TMR dagi malaka darajasi:
		26341004 - Pedagog-psixolog	7
		26341007 - Ta'lim sohasi psixologi	7

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1	26341004 Pedagog- psixolog	A1.7	Talabalarning psixologik xususiyatlarini o'rganish va diagnostika o'tkazish	A1.01.7	Talabalarning individual-psixologik xususiyatlarini o'rganish, intellektual rivojlanish, emotsional holat va shaxs xususiyatlarini aniqlash
				A1.02.7	Qobiliyat, qiziqish va moyilliklarni baholash, psixologik testlar va metodikalardan foydalanish, diagnostika natijalarini tahlil qilish va xulosa berish
				A1.03.7	Salbiy xulq-atvorning oldini olish, nizoli vaziyatlarni bartaraf etish bo'yicha tadbirlar o'tkazish
				A1.04.7	Stress, zo'ravonlik, deviant xatti-harakatlarning oldini olish, sog'lom psixologik muhitni shakllantirish
		A2.7	Psixologik maslahat berish va korreksion- rivojlantiruvchi faoliyatni amalga oshirish	A2.01.7	Ta'lim oluvchilar va ularning yaqinlari hamda pedagoglarga individual maslahat berish, kasb tanlash bo'yicha yo'naltirish
				A2.02.7	Talabalarning o'qishdagi va xulqidagi muammolarini hal etishda ko'maklashish, inqirozli vaziyatlarda psixologik yordam ko'rsatish
				A2.03.7	Talabalarning psixologik farovonligini ta'minlash, mavjud muammolarini bartaraf etish va shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan treninglarni amalga oshirish
				A2.04.7	Talabalarda samarali muloqot ko'nikmalari, o'zini o'zi boshqarish va irodaviy fazilatlarni rivojlantirish
2	26341007 Ta'lim sohasi psixologi	B1.7	Ta'lim oluvchilarning psixologik diagnostikasi va profilaktik faoliyatini amalga oshirish	B1.01.7	Ta'lim oluvchilarning individual-psixologik xususiyatlarini aniqlash, intellektual rivojlanish darajasini baholash
				B1.02.7	Emotsional holat va shaxs xususiyatlarini o'rganish, qobiliyat, qiziqish va kasbiy moyilliklarni aniqlash, diagnostik metodikalar asosida xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish

				B1.03.7	Talabalar o'rtasida salbiy xulq-atvor, deviant holatlar, zo'ravonlik, bullying, stress va nizolarning oldini olish hamda psixologik xavfsiz ta'lim muhitini yaratishga qaratilgan profilaktik ishlarni amalga oshirish.
				B1.04.7	Talabalarga individual va guruhviy maslahat berish, ota-onalar va pedagoglarga psixologik tavsiyalar berish
		B2.7	Talabalarining o'quv faoliyati, motivatsiyasi, emotsional holati va psixologik farovonligini monitoring qilish, psixologik maslahat va rivojlantiruvchi ishlarni amalga oshirish hamda metodik faoliyatni tashkil etish	B2.01.7	Ta'lim jarayonidagi qiyinchiliklarni bartaraf etishda ko'maklashish, kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha maslahatlar berish
				B2.02.7	Psixologik qiyinchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan mashg'ulotlar tashkil etish, shaxsiy o'sish va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish
				B2.03.7	Muloqot, liderlik va o'zini boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish, iqtidorli va alohida e'tibor talab etuvchi talabalar bilan ishlash
				B2.04.7	Yillik va istiqbolli ish rejasini ishlab chiqish, hisobotlar va tahliliy ma'lumotlar tayyorlash, metodik qo'llanmalar va tavsiyalar ishlab chiqish, pedagogik jamoa bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish

IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi:	Pedagog-psixolog	
Mashg'ulot nomining kodi:	26341	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	7	
Malakani baholashga qo'yilgan talablar:	Malakani baholash markazida tavsiya etilmaydi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar	Kamida 3-5 yil pedagogik yoki psixologik faoliyat tajribasi aniq talablar ish beruvchi tashkilot (maktab, bog'cha, OTM yoki davlat tashkiloti) va e'lon qilingan lavozim yo'riqnomasiga qarab farq qilishi mumkin.	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	Psixologiya fanining nazariy va amaliy asoslarini bilish, psixodiagnostika, psixologik maslahat va psixoprofilaktika metodlarini amaliyotda qo'llay olish, ta'lim oluvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlash, psixologik xulosa va tavsiyalarni ishlab chiqish hamda rasmiylashtirish, ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik, psixologik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, ta'lim oluvchilar, pedagoglar va boshqa manfaatdor tomonlar bilan samarali muloqot o'rnatish, nizoli va murakkab vaziyatlarni konstruktiv hal etish. Kasbiy faoliyatda maxfiylik, xolislik va etik me'yorlarga rioya qilish, jamoada ishlash, hamkorlikni yo'lga qo'yish va tashabbuskorlik ko'rsatish, tahliliy fikrlash, mas'uliyatlilik, stressga chidamlilik va qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lish, kasbiy bilim va kompetensiyalarni muntazam rivojlantirib borish.	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	magistratura; yuqori darajadagi qo'shimcha ta'lim (internatura, ordinatura, biznes boshqaruvi, davlat boshqaruvi va boshqa xalqaro tan olingan ta'lim); mutaxassislik (spetsialitet); bakalavriat va amaliy tajriba;	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	-	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	-	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	7	Pedagog
	7	Oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisi
	7	Ta'lim sohasi psixologi
	7	Ijtimoiy pedagog

	7	Tyutor
	7	Yoshlar bilan ishlash bo'yicha mutaxassis
	7	Uslubchi
	7	Defektolog
	7	Logoped
	7	Inklyuziv ta'lim mutaxassisi
	7	Psixologik maslahat markazlari mutaxassislari
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
A1.7- Talabalarining psixologik xususiyatlarini o'rganish va diagnostika o'tkazish	A1.01.7- Talabalarining individual- psixologik xususiyatlarini o'rganish, intellektual rivojlanish, emotsional holat va shaxs xususiyatlarini aniqlash	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Talabalar haqida dastlabki ma'lumotlarni yig'ish anketa, suhbat, kuzatuv orqali, psixologik diagnostika rejasini ishlab chiqish, yosh xususiyatlariga mos psixodiagnostik metodikalarni tanlash
		2. Individual va guruhviy test sinovlarini tashkil etish va o'tkazish, talabaning qiziqishlari, ehtiyojlari va motivatsiyasini aniqlash
		3. Olingan natijalarni qayta ishlash va tahlil qilish, psixologik xulosa tayyorlash va tavsiyalar ishlab chiqish, natijalarni pedagog va ota-onalarga tushuntirish
		4. Talabalarining individual-psixologik xususiyatlari, intellektual rivojlanishi va emotsional holatini aniqlash uchun psixodiagnostik metodika va testlarni qo'llash
		5. O'quv faoliyati samaradorligini tahlil qilish, o'quv motivatsiyasini baholash
		6. Intellektual rivojlanish darajasini yosh me'yorlari bilan solishtirish, qobiliyat va iqtidor yo'nalishlarini aniqlash, individual rivojlantiruvchi tavsiyalar ishlab chiqish
		7. Talabaning emotsional barqarorligini o'rganish, xavotirlanish, agressivlik, depressiv holat belgilarini aniqlash
		8. Temperament va xarakter xususiyatlarini baholash, o'z-o'zini baholash darajasini aniqlash
		9. Muloqot uslubi va ijtimoiy moslashuv darajasini o'rganish, stress omillarini aniqlash va tahlil qilish
		10. Zarurat bo'lganda korreksion yoki maslahat ishlarini rejalashtirish
		Ko'nikmalar:
		Psixologik kuzatuvni tizimli va maqsadli olib borish, individual va guruhviy suhbat o'tkazish

		Psixodiagnostik metodikalarni to'g'ri tanlash va qo'llash, anketa, test va so'rovnomalarni o'tkazish va qayta ishlash
		Olingan natijalarni tahlil qilish va interpretatsiya qilish, psixologik xulosa va tavsiyalarni rasmiylashtirish ko'nikmasi, ta'lim oluvchilar va ularning yaqinlari hamda pedagoglarga natijalarni professional tarzda yetkazish
		Bilish jarayonlarini (diqqat, xotira, tafakkur, nutq, tasavvur) baholash, intellektual darajani aniqlovchi metodikalardan foydalanish
		O'quv motivatsiyasini aniqlash va tahlil qilish, o'quv faoliyatidagi qiyinchiliklarni diagnostika qilish
		Natijalarni yosh me'yorlari bilan solishtirish, iqtidor va qobiliyatlarni aniqlash ko'nikmasi, individual rivojlantiruvchi dastur tuzish
		Emotsional barqarorlik darajasini baholash ko'nikmasi, xavotirlanish, agressivlik va boshqa emotsional holatlarni aniqlash
		Temperament va xarakter tiplarini tahlil qilish ko'nikmasi, o'z-o'zini baholash darajasini o'rganish
		Ijtimoiy moslashuv darajasini aniqlash ko'nikmasi, stress omillarini aniqlash va tahlil qilish
		Zarur hollarda korreksion yoki maslahat ishlarini rejalashtirish
		Bilimlar:
		Umumiy psixologiya asoslari psixik jarayonlar, holatlar va xususiyatlar, yosh va pedagogik psixologiya nazariyalari
		Shaxs rivojlanishining bosqichlari va qonuniyatlari, individual farqlar psixologiyasi, psixodiagnostika nazariyasi va metodologiyasi
		Psixologik kuzatuv va suhbat metodlari, psixologik xulosa yozish va tavsiya ishlab chiqish tamoyillari, etika va maxfiylik qoidalari
		Bilish jarayonlari diqqat, xotira, tafakkur, nutq, tasavvur nazariy asoslari, intellekt nazariyalari va tuzilmasi, aqliy rivojlanishning yosh me'yorlari
		Qobiliyat va iqtidor nazariyalari, o'quv motivatsiyasi va uning psixologik mexanizmlari
		Ta'lim jarayonidagi qiyinchiliklarning psixologik sabablari, diagnostik metodikalarning ilmiy asoslari

		Emotsiya va hissiyotlar psixologiyasi, stress va emotsional zo'riqish nazariyalari, temperament va xarakter tipologiyasi O'z-o'zini baholash va "Men-konsepsiyasi" nazariyasi, shaxsning ijtimoiy moslashuv mexanizmlari Temperamentning psixologik xususiyatlari hamda uning shaxs xulq-atvori va faoliyatidagi namoyon bo'lish qonuniyatlari Qobiliyat-bu ma'lum faoliyatni muvaffaqiyatli bajarish uchun zarur bo'lgan individual psixologik xususiyatlari
	A1.02.7- Qobiliyat, qiziqish va moyilliklarni baholash, psixologik testlar va metodikalardan foydalanish, diagnostika natijalarini tahlil qilish va xulosa berish	Mehnat harakatlari: 1. Talabalarining umumiy va maxsus qobiliyatlarini aniqlash uchun vazifalarni belgilash 2. Talabalarining turli faoliyat turlaridagi ishtiroki va natijalarini kuzatish orqali qobiliyat va moyilliklarini baholash 3. Qobiliyat, qiziqish va moyilliklarni aniqlash uchun psixologik testlar, so'rovnomalar, suhbatlar hamda amaliy topshiriqlarni amalga oshirish 4. Talabalarining kasbiy va shaxsiy qiziqishlarini suhbat, kuzatuv va so'rovnomalar asosida aniqlash 5. Talabalarining qiziqish sohalarini so'rovnomalar va suhbatlar orqali aniqlash 6. Psixologik testlarni o'tkazish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish va test jarayonini tashkil etish 7. Test va diagnostika natijalarini yig'ish, tizimlashtirish va tahlil qilish 8. Talabalarining individual-psixologik xususiyatlari, qobiliyatlari va qiziqishlari bo'yicha psixologik xulosa hamda tavsiyalar ishlab chiqish 9. Test natijalarini yozma shaklda qayd etish, individual xususiyatlar, qobiliyat va qiziqishlarni tahlil qilish 10. Talabalarining individual-psixologik xususiyatlarini psixodiagnostik metodlar asosida aniqlash va diagnostika natijalari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish 11. Turli faoliyat turlarida ishtirokini kuzatish Ko'nikmalar: Talabalarining faoliyatini va xulq-atvorini tizimli kuzatish Faoliyat davomida qobiliyat va moyillikni aniqlash So'rov va suhbat olib borish ko'nikmalari, maqsadli savollar orqali qiziqish va ichki motivatsiyani aniqlash Individual psixologik xususiyatlarni tushuntirish va tahlil qilish

		Faoliyatga yo'naltirilgan diagnostika ko'nikmalari, talabalarning ijodiy, texnik yoki mantiqiy vazifalarni bajarishdagi qobiliyatini baholash
		Natijalarni yozma shaklda qayd etish, testni talabaning yoshi va xususiyatlariga moslashtirish
		Testlarni tanlash ko'nikmalari, maqsadga muvofiq psixologik test va metodikani tanlash
		Psixologik testlarni o'tkazish ko'nikmasi, test o'tkazish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish va ishtirokchilarga tushunarli ko'rsatmalar berish
		Talabalarga testni to'g'ri tushuntirish va vaqtni boshqarish
		Ma'lumotlarni qayd etish, test natijalarini tartibga solish va yozma shaklda saqlash
		Diagramma, jadval yoki grafik orqali ko'rsatish, qiziqish, moyillik va emotsional holatni kompleks baholash
		Natijalarni yuqori, o'rta va past darajalar bo'yicha tasniflash hamda interpretatsiya qilish
		Xulosa chiqarish ko'nikmalari, individual rivojlanish yo'nalishini aniqlash, moslashtirilgan tavsiyalar berish
		Pedagogik va psixologik tavsiyalar ishlab chiqish, kelajakdagi faoliyat va ta'lim yo'nalishini tavsiya etish
		Talaba imkoniyatiga moslashtirilgan topshiriqlar va mashg'ulotlarni belgilash, guruh va individual faoliyatni rejalashtirish
		Bilimlar:
		Qobiliyat-shaxsning ma'lum faoliyatni muvaffaqiyatli bajarish imkoniyati
		Umumiy va maxsus qobiliyatlar tushunchasi hamda ularning namoyon bo'lish xususiyatlari
		Shaxsning qiziqishlari, moyilliklari va kasbiy yo'nalganligini aniqlashning psixologik asoslari
		Psixologik test va metodikalar, testlar: IQ testlar, Gardner ko'p qirrali intellekt testi, Lusher testi, MMPI, Kettell testi
		Psixodiagnostik metodikalar va ularni qo'llash tamoyillari
		Psixologik testlarning maqsadi, imkoniyatlari va qo'llash cheklovlari
		Diagnostika natijalarini tahlil qilish va interpretatsiya qilish asoslari

		Xulosa berish: individual rivojlanish yo'nalishi, pedagogik va psixologik tavsiyalar
		Qobiliyat, qiziqish va moyilliklarni baholash mezonlari
A1.03.7- Salbiy xulq-atvorning oldini olish, nizoli vaziyatlarni bartaraf etish bo'yicha tadbirlar o'tkazish		Psixologik tavsiyalar ishlab chiqishning nazariy asoslari
		Mehnat harakatlari:
		1. Vaziyatni aniqlash, sinf yoki guruhdagi salbiy xulq-atvor va nizolarni kuzatish
		2. Talabalar bilan suhbat va so'rovlar orqali muammo sabablarini aniqlash
		3. Maqsad va vazifalarni belgilash, salbiy xulq-atvorni kamaytirish, nizoli vaziyatlarni oldini olish va hal etish
		4. Ijtimoiy qoidalarni eslatish, sinfda axloqiy va ijtimoiy qoidalarni muhokama qilish
		5. Talabalarni ijtimoiy mas'uliyat va madaniyatga o'rgatish
		6. Jamoada ijtimoiy-psixologik muhitni baholash maqsadida so'rovnoma, suhbat va kuzatuvlarni tashkil etish hamda o'tkazish
		7. Muammoli guruh yoki shaxslarni aniqlash, profilaktik va tuzatish ishlari rejasini ishlab chiqish
		8. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etish
		9. "Sog'lom muhit-sog'lom jamoa" mavzusida targ'ibot ishlari olib borish, mas'ul shaxslar va hamkor tashkilotlarni belgilash
		10. Xulq-atvor madaniyati, muloqot etikasi bo'yicha trening mashg'ulotlari o'tkazish
		11. Yoshlar bilan individual profilaktik suhbatlar tashkil qilish, psixologik maslahat va ko'mak xizmatlarini yo'lga qo'yish
		12. Nizoning kelib chiqish sababini xolisona aniqlash, nizo ishtirokchilari bilan alohida va birgalikda suhbat o'tkazish
		13. Mediatsiya kelishtirish usullaridan foydalanish, murosaga kelish bo'yicha kelishuv ishlab chiqish
		14. Qabul qilingan qaror ijrosini nazorat qilish, hisobot tayyorlash va rahbariyatga taqdim etish.
		15. O'tkazilgan tadbirlar samaradorligini tahlil qilish, qayta so'rovnoma o'tkazish orqali muhitni baholash
		16. Takroriy nizolarni oldini olish bo'yicha qo'shimcha choralar ishlab chiqish
		17. Ota-onalar (yoki xodimlar oilasi) bilan hamkorlikni mustahkamlash

		18. Psixolog, rahbar, murabbiy va jamoatchilik bilan birgalikda ishlash
		19. Ichki tartib-qoidalar va axloqiy me'yorlarni tushuntirish va targ'ib qilish
		Ko'nikmalar:
		Tadbirlarni rejalashtirish va maqsad qo'yish, muammoni aniqlash va tahlil qilish
		Vaqtning to'g'ri taqsimlash va boshqarish, hujjatlar bilan ishlash va hisobot tayyorlash
		Samarali muloqot olib borish, faol tinglash va empatiya bildirish
		Ochiq va tushunarli fikr bayon etish, tanqidni to'g'ri qabul qilish va konstruktiv fikr bildirish
		stressli vaziyatlarda o'zini boshqara olish, Salbiy xulq-atvor sabablarini aniqlash
		Individual yondashuvni qo'llash, motivatsiya berish va rag'batlantirish
		Profilaktik suhbat o'tkazish texnikasi, ijobiy muhit yaratish
		Nizoning turini va sababini aniqlash, mediatsiya va muzokara olib borish
		Murosaga kelish strategiyalarini qo'llash, hissiyotlarni boshqarish va xolislikni saqlash
		Rivojlanish dinamikasini monitoring qilish va tavsiyalarni yangilab borish
		Sabr-toqat va bag'rikenglik, mas'uliyat va adolat tamoyillariga amal qilish, doimiy o'rganish va o'z ustida ishlash
		Bilimlar:
		Salbiy xulq-atvor tushunchasi, turlari va kelib chiqish sabablari, shaxs rivojlanish bosqichlari va yosh xususiyatlari
		Jamoadagi ijtimoiy-psixologik muhit tushunchasi, nizo tushunchasi, turlari va bosqichlari
		Konfliktologiya asoslari, salbiy xulq-atvor tushunchasi, turlari va kelib chiqish sabablari
		Shaxs psixologiyasi va individual farqlar, emotsiya va hissiyotlarni boshqarish asoslari
		Stress va agressiyaning kelib chiqish sabablari, motivatsiya va rag'batlantirish mexanizmlari
		Empatiya va samarali muloqot tamoyillari, shaxs psixologiyasi va individual farqlar

		Tarbiya jarayonining maqsad va vazifalari, profilaktik ishlar metodikasi
		Intizom va ichki tartib-qoidalar mazmuni, individual yondashuv va differensial ta'lim asoslari
		Ijobiy muhit yaratish usullari, tarbiya jarayonining maqsad va vazifalari
		Mehnat va ta'lim sohasiga oid qonunchilik asoslari, ichki tartib-qoidalar va axloqiy me'yorlar
		Huquqbuzarlik va intizomiy javobgarlik tushunchalari, voyaga yetmaganlar huquqlarini himoya qilish asoslari
		Tadbirlarni rejalashtirish va tashkil etish bosqichlari, trening, seminar va davra suhbatlarini o'tkazish metodikasi, monitoring va baholash usullari
	A1.04.7-Stress, zo'ravonlik, deviant xatti-harakatlarning oldini olish, sog'lom psixologik muhitni shakllantirish	Mehnat harakatlari:
		1. Psixologik iqlim monitoring, anketa, test, sotsiometriya, stress indikatorlarini aniqlash
		2. Psixologik iqlimni anketa, test va sotsiometriya metodlari asosida o'rganish hamda monitoring olib borish
		3. Stress, zo'ravonlik va deviant xatti-harakatlarga ta'sir etuvchi oilaviy, mikroijtimoiy va jamoaviy omillarni aniqlash va tahlil qilish
		4. Ta'lim muhitining psixologik holatini, tashkiliy madaniyat va ichki munosabatlarni baholash
		5. Qisqa, o'rta va uzoq muddatli maqsadlar, KPI, natija ko'rsatkichlari belgilash
		6. Profilaktik, korreksion va rivojlantiruvchi tadbirlar yo'nalishlarini belgilash hamda stressni boshqarish bo'yicha mashg'ulotlar rejasini ishlab chiqish
		7. Emotsional intellektni rivojlantirish, zo'ravonlik va bullingning oldini olishga qaratilgan trening va seminarlar tashkil etish
		8. Zo'ravonlik va diskriminatsiyaga nisbatan "nol toqat" tamoyilini joriy etish, ichki etik kodeks va xulq-atvor qoidalarini ishlab chiqish
		9. Maxfiy murojaat va ishonch qutisi tizimini tashkil etish, mojarolarni erta aniqlash va mediatsiya tizimini joriy etish
		10. Har oy "ochiq muloqot kuni" o'tkazish, rahbar va xodimlar o'rtasida konstruktiv fikr almashuvni rag'batlantirish
		11. Nafas olish mashqlari, relaksatsiya usullari va vaqtni boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish

		12. Empatiya mashqlari, konfliktni tinch yo'l bilan hal qilish ko'nikmalari, o'z his-tuyg'ularini nazorat qilish bo'yicha treninglar
		13. Psixologik maslahat xizmati tashkil etish, mentorlik ustoz-shogird tizimini joriy qilish, jamoaviy sport va madaniy tadbirlar tashkil etish
		14. Stressni kamaytirish, kasbiy charchash (burnout)ning oldini olish va ijobiy fikrlashni rivojlantirish bo'yicha treninglar tashkil etish
		Ko'nikmalar:
		O'z hissiyotlarini tanib olish, stress manbalarini aniqlay olish
		Nafas va relaksatsiya mashqlarini bajarish, salbiy fikrlarni konstruktiv fikrlashga almashtirish, hissiy portlashni nazorat qilish
		Ustuvor vazifalarni belgilash, ish va dam olish balansini saqlash, ortiqcha yuklanishdan saqlanish
		Boshqalarning his-tuyg'ularini tushunish, turli fikr va qarashlarga tolerantlik bilan yondashish, shaxsiy chegaralarni hurmat qilish
		Muammoni suhbat orqali hal qilish, "Men-xabar" (I-message) texnikasidan foydalanish, murosaga kelish va kelishuv tuzish
		G'azabni xavfsiz yo'l bilan chiqarish, sport, ijod, provokatsiyaga berilmaslik, vaziyatdan vaqtincha chekinish
		Qonun va ichki qoidalarga rioya qilish, jamoa oldidagi javobgarlikni his qilish, ijobiy namuna bo'lish
		Oqibatni oldindan baholash, "To'g'ri va noto'g'ri"ni ajrata olish, bosim ostida mustaqil fikr yuritish
		Impulsiv harakatlardan saqlanish, sabr-toqatni rivojlantirish, maqsad sari intilish
		Faol tinglash, ochiq fikr bildirish, tanqidni to'g'ri qabul qilish, hamkorlik qilish, rollarni to'g'ri taqsimlash, o'zaro qo'llab-quvvatlash
		Yutuqlarni e'tirof etish, o'z-o'zini rag'batlantirish, muammoga imkoniyat sifatida qarash
		Bilimlar:
		Stressning mohiyati va paydo bo'lish sabablari, ijobiy (eustress) va salbiy (distress) stress farqi, kasbiy stress va emotsional zo'riqish sabablari

		Jismoniy belgilar charchoq, bosh og'rig'i, uyqusizlik, psixologik belgilar asabiylik, tushkunlik, xulqiy belgilar tajovuzkorlik
		Ish unumdorligining pasayishi, sog'liq muammolari, jamoaviy munosabatlarning buzilishi
		Jismoniy zo'ravonlik, ruhiy, psixologik, zo'ravonlik, iqtisodiy zo'ravonlik, kiberzo'ravonlik
		Noto'g'ri tarbiya va ijtimoiy muhit, past emotsional intellekt, stress va nazoratsiz agressiya
		Zo'ravonlikka qarshi qonunchilik asoslari, shaxsiy huquq va majburiyatlar, himoya mexanizmlari va murojaat tartibi
		Me'yor va og'ish tushunchasi, ijtimoiy me'yorlar va qadriyatlar
		Tajovuzkorlik, qoidabuzarlik, giyohvandlik va boshqa deviant xatti-harakatlarning psixologik sabablari hamda profilaktikasi
		Ijroiy ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish omillari, oila va jamoaning tarbiyaviy ta'siri
		Jamoadi o'zaro ishonch, ochiq muloqot madaniyati, o'zaro hurmat tamoyili
		O'zini anglash, empatiya va hissiyotlarni boshqarishning psixologik asoslari
		Psixologik treninglar, seminarlar va profilaktik tadbirlarni tashkil etishning nazariy asoslari
		Psixologik monitoring va baholash usullarining mazmuni va qo'llash tamoyillari
	Mas'uliyat mustaqillik: va	1. Stress, zo'ravonlik va deviant xatti-harakatlarning oldini olishga qaratilgan tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirishdagi mustaqillik
		2. Ta'lim oluvchilarning psixologik xavfsizligini ta'minlash va sog'lom psixologik muhitni shakllantirish uchun mas'ullik
		3. Psixologik monitoring va diagnostika natijalarining xolisligi hamda ishonchliligini ta'minlash javobgarligi
		4. Psixologik ma'lumotlarning maxfiylikni saqlash mas'uliyati va ulardan qonunchilik talablariga muvofiq foydalanish mustaqilligi
		5. Profilaktik, korreksion va rivojlantiruvchi tadbirlar yuzasidan asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdagi mustaqillik

		6. Zo'ravonlik, tazyiq, kamsitish yoki xavfli xatti-harakatlar aniqlanganda belgilangan tartibda tegishli choralarni ko'rish va rahbariyatni xabardor qilish mas'uliyati
		7. Ta'lim oluvchilar, pedagoglar va boshqa manfaatdor tomonlar bilan hamkorlikni tashkil etishdagi mustaqillik
		8. Kasbiy etika me'yorlariga rioya qilish hamda o'z faoliyati natijalari uchun javobgarlik
		9. Kasbiy kompetensiyalarni muntazam rivojlantirib borish va ilg'or tajribalarni amaliyotga joriy etish mas'uliyati
A2.7- Psixologik maslahat berish va korreksion-rivojlantiruvchi faoliyatni amalga oshirish	A2.01.7- Talabalar, ota-onalar va pedagoglarga individual maslahat berish, Kasb tanlash bo'yicha yo'naltirish	Mehnat harakatlari:
		1. Talabalar bilan shaxsiy uchrashuvlar, testlar (qiziqish, qobiliyat, temperament testlari) orqali maslahat berish, natijalarni tahlil qilib, mos kasblar ro'yxatini tavsiya qilish
		2. Har bir yosh guruhiga mos kasblar haqida qisqa ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar: "Men bu kasbni qilaman" rolli o'yinlarni tashkil etish
		3. Turli korxonalar, kasb markazlari va universitetlarga tashriflar, talabalarni real ish jarayoni bilan tanishtirish
		4. Qisqa va uzoq muddatli maqsadlarni belgilash, mutaxassis bilan birga yo'l xaritasi tuzish
		5. Bolalarning qiziqishlari, qobiliyatlari va imkoniyatlarini tushuntirish, kasb tanlash jarayonida ota-onaning roli haqida ma'lumot berish
		6. Kasblar va mehnat bozoridagi talablar haqida ma'lumot berish, moliyaviy va psixologik qo'llab-quvvatlash yo'llarini ko'rsatish
		7. Talabalar, ota-onalar va pedagoglarga psixologik maslahat berish jarayonida ta'lim va rivojlanish resurslaridan samarali foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish
		8. Individual maslahat berish usullari, psixologik testlarni o'qituvchilarga tushuntirish va natijalarni tahlil qilish
		9. Trendlar va yangi kasblar haqida muntazam yangilanishlar, mehnat bozoridagi talablar bilan tanishtirish
		10. Pedagoglarni guruhlariga bo'lib, talabalarga individual maslahat berish tizimini yaratish, tajriba almashish va ish jarayonlarini monitoring qilish

		11. Har bir guruh uchun raqamli platforma yoki portal yaratish, testlar, kasblar ro'yxati, mentorlar bilan bog'lanish
		12. Talabalarni yo'naltirish natijalari va maslahat samaradorligini kuzatish
		13. Ta'lim oluvchilar va ularning yaqinlari hamda pedagoglar o'rtasida muntazam uchrashuvlar tashkil etish
		Ko'nikmalar:
		Qiziqishlar, qobiliyat va shaxsiy kuchli tomonlarni aniqlash, shaxsiy maqsad va orzularini aniqlash
		Turli kasblar haqida axborot yig'ish va tahlil qilish, o'z qobiliyatlariga mos kasblarni tanlash
		qisqa va uzoq muddatli kasbiy yo'lni rejalashtirish, turli variantlar orasidan optimal tanlov qilish
		O'rganish motivatsiyasini oshirish, vazifalarni rejalashtirish va nazorat qilish
		Maslahatchilar, pedagog va ota-onalar bilan samarali suhbat, guruh ishlarida hamkorlik qilish
		Talabani qiziqishlari va qobiliyatlarini tushunish, bolaga ijobiy motivatsiya berish
		Kasblar, ta'lim yo'nalishlari va ish bozorini tahlil qilish, raqamli va an'anaviy manbalardan axborot olish
		Talabaga muvofiq variantlarni tavsiya qilish, qaror qabul qilish jarayonida yordam berish
		Talabalar bilan samarali suhbat qilish, pedagoglar bilan hamkorlik qilish
		Bilimlar:
		Shaxsiy qiziqishlar, qobiliyatlar va individual xususiyatlarni aniqlash hamda baholash usullari
		Turli kasblar va ularning talablari, ta'lim yo'nalishlari va malaka darajalari
		Mashhur va dolzarb kasblar, ish bozori tendensiyalari va talablari
		Kasb tanlash va shaxsiy rivojlanish strategiyasi, maqsad qo'yish va rejalashtirish asoslari
		Ta'lim olish samaradorligini oshirish, motivatsiyani rivojlantirish va vaqtni boshqarishning psixologik asoslari
		Talabani qiziqishlari va qobiliyatlarini aniqlash usullari, psixologik rivojlanish bosqichlari va yosh xususiyatlari
		Kasblarning mazmuni, malaka talablari va kasbiy rivojlanish imkoniyatlari

		Kasbiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlovchi ta'lim resurslari va axborot manbalari Talabaga qaror qabul qilish jarayonida yordam berish, uy sharoitida rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash yo'llari Turli kasblar va talablar, malaka darajalari, ta'lim va kasb yo'nalishlari
	A2.02.7- Talabalarining o'qishdagi va xulqidagi muammolarini hal etishda ko'maklashish, Inqirozli vaziyatlarda psixologik yordam ko'rsatish	Mehnat harakatlari: 1. Talabalarining o'qish, e'tibor, eslab qolish va tushunish qobiliyatlarini aniqlash 2. Talabalar bilan individual suhbatlar o'tkazish hamda o'qish samaradorligini oshirishga qaratilgan o'quv strategiyalari bo'yicha tavsiyalar berish 3. Muammoli mavzularni aniqlash va qo'shimcha darslar rejasini tuzish, talabalarining muvaffaqiyatlarini muntazam kuzatish 4. Muvaffaqiyatni rag'batlantirish tizimini yaratish, yutuqlarni taqdirlash 5. Baholarni yaxshilash uchun rag'bat, talaba o'z kuchini his qilishi uchun kichik vazifalarni belgilash 6. Talabalarining OTMdagi va auditoriyadagi xatti-harakatlarini kuzatish, muammoli xatti-harakatlarni aniqlash va tahlil qilish 7. Konfliktlarni boshqarish, ijtimoiy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish, stressni boshqarish va hissiyotlarni konstruktiv ifodalash bo'yicha mashg'ulotlar tashkil etish va o'tkazish 8. Talaba bilan suhbat va muammoni yechish bo'yicha tavsiyalar, zarur hollarda ota-onalar va pedagoglarni jalb qilish 9. Ijobiy xatti-harakatlarni rag'batlantirish, talabalarining o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini oshirish 10. Zo'ravonlik, oilaviy muammolar, kutilmagan voqealar yoki stress vaziyatlarini aniqlash 11. Talabaning xavfsizligini birinchi o'ringa qo'yish, natijalarni tahlil qilib, muammolarni aniqlash 12. Talaba bilan tezkor individual suhbatlar, stressni kamaytirish va muammoni boshqarish strategiyalarini berish Ko'nikmalar: Talabaning bilim darajasi va qiyinchilik sabablarini aniqlash, e'tibor, xotira va tafakkur jarayonlarini kuzatish Individual o'quv ehtiyojlarini belgilash, muammoning ildiz sababini aniqlash

	Individual rivojlanish rejasini tuzish, qisqa va uzoq muddatli maqsadlarni belgilash
	O'quv strategiyalarini o'rgatish konspekt tuzish, vaqtni boshqarish, takrorlash usullari, motivatsiyani oshirish
	Ijobiy fikr-mulohaza berish, o'qituvchilar bilan muvofiqlashtirilgan ish olib borish
	Ta'lim oluvchilar va ularning yaqinlari bilan muntazam muloqot, talaba, pedagog, ota-ona uchburchagini shakllantirish
	Xulqdagi o'zgarishlarni aniqlash, konflikt vaziyatlarni tahlil qilish
	Muammoli xatti-harakatlarni qayd etish, muzokara olib borish
	Murosaga kelish yo'llarini topish, agressiyani konstruktiv yo'naltirish
	Zarur hollarda mutaxassislariga yo'naltirish, maxfiylik va etik me'yorlarga rioya qilish
	Muammoni bosqichma-bosqich yechishga yo'naltirish, resurslarni aniqlash va mustahkamlash
	Bilimlar:
	Talabalarning yosh va individual xususiyatlari, o'qishdagi qiyinchiliklarning psixologik sabablari
	Samarali o'qitish metodlari, individual yondashuv tamoyillari, differensial va inklyuziv ta'lim asoslari
	Ichki va tashqi motivatsiya tushunchasi, rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash usullari
	Talabada o'qishga ijobiy munosabat shakllantirish yo'llari, o'quv qiyinchiliklarini aniqlash metodlari
	Kuzatuv va suhbat asosida tahlil qilish, individual rivojlanish xaritasini tuzish, talabalarning emotsional va ijtimoiy rivojlanish bosqichlari
	Konflikt turlari va sabablari, konfliktni konstruktiv hal etish usullari
	Agressiv va deviant xatti-harakatlarning psixologik sabablari hamda xulq-atvor shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar
	Oila, ijtimoiy muhit va tengdoshlar guruhining shaxs rivojlanishiga ta'siri
	Stress, psixologik zo'riqish va emotsional tanglikning asosiy belgilari
	Ijtimoiy xavf guruhiga mansub talabalarni aniqlash va ular bilan ishlashning psixologik asoslari

		Inqiroz tushunchasi va turlari oilaviy muammo, zo'ravonlik, yo'qotish, travma, stress va travmaning ruhiy ta'siri
		Favqulodda vaziyatlarda yordam ko'rsatish algoritmi, emotsional barqarorlikni tiklash usullari
		Pedagogik muloqot madaniyati, empatiya va faol tinglash nazariyasi
	A2.03.7- Talabalarning psixologik farovonligini ta'minlash, mavjud muammolarini bartaraf etish va shaxsiy rivojlanishini qo'llab- quvvatlashga qaratilgan treninglarni amalga oshirish	Mehnat harakatlari:
		1.Talabalar rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi shart-sharoitlarni aniqlash
		2.Talabalarning rivojlanishi uchun qulay va xavfsiz ta'lim muhitini yaratish, shuningdek ularning hissiy, intellektual va irodaviy rivojlanishidagi buzilishlarning oldini olish bo'yicha psixologik tavsiyalar ishlab chiqish
		3.Pedagoglar bilan hamkorlikda ijtimoiy moslashuv buzilishi, qaramlik (addiksiya) va deviant xulq-atvorning yuzaga kelishining oldini olishga qaratilgan profilaktik tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish
		4.Talabalarga sog'liqni saqlovchi ta'lim texnologiyalarini qo'llash zaruriyatini tushuntirish hamda ularning natijalarini baholash
		5.Talabalar uchun yangi ta'lim sharoitlariga psixologik tayyorgarlik va moslashish masalalari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish
		6.Pedagoglar va o'qituvchilar uchun ijtimoiy moslashuvi qiyin bo'lgan, shuningdek xulq-atvorida deviant va addiktiv holatlar kuzatiladigan ta'lim oluvchilarni ijtimoiy integratsiyalash va ijtimoiylashtirish masalalari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish
		7.Talabalarning stressga chidamliligi, nizolarni hal etish va emotsiyalarni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish
		8.Ta'lim muassasasida sog'lom psixologik muhitni shakllantirish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish
		Ko'nikmalar:
		Talabalarda ruhiy va shaxsiy rivojlanishida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy holatlarning oldini olish bo'yicha ishlarni rejalashtirish va tashkil etish, ayniqsa ijtimoiy himoyaga muhtoj hamda murakkab hayotiy vaziyatga tushib qolgan talabalar bilan ishlash
		Ta'lim tashkilotlarida talabalarning har bir yosh bosqichida normal ruhiy rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan psixologik ta'lim va tarbiya sharoitlariga rioya etish bo'yicha psixologik tavsiyalar ishlab chiqish

		Pedagoglar, ota-onalar (qonuniy vakillar), va boshqa xodimlar uchun talabalarga moslashuv, inqiroz oldi va inqiroz davrlarida yordam ko'rsatish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish
		Talabalarda turli yoshdagi jamoalarda va tengdoshlari orasida muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirish, shuningdek virtual va ko'p madaniyatli muhitda to'g'ri xulq-atvor ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan tadbirlarni o'tkazish
		Stress, xavotir va emotsional zo'riqishlarni kamaytirish bo'yicha psixologik texnikalarni qo'llash
		Raqamli texnologiyalar va psixologik diagnostika platformalaridan foydalanish
		Bilimlar:
		Turli yosh bosqichlarida ruhiy, shaxsiy va individual rivojlanish qonuniyatlari hamda yosh me'yorlari, bolalar, o'smirlar va yoshlarning ta'lim muassasalari sharoitlariga moslashish usullari va moslashuv buzilishlari (dezadaptiv xulq-atvor)ning namoyon bo'lish shakllari
		Jamoadagi qulay ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish va qo'llab-quvvatlashning zamonaviy nazariyalari, shuningdek xavfsiz va qulay ta'lim muhitini yaratish texnologiyalari hamda usullari
		Talabalarning yosh xususiyatlariga mos ravishda ularning jamoaviy va individual faoliyatini tashkil etish usullari
		Mutaxassislarda kasbiy kuyish (professional burnout)ning oldini olish nazariyalari va metodlari, uning kelib chiqish sabablari hamda pedagogik jamoada psixologik zo'riqishlarning oldini olish va bartaraf etish usullari
		Talabalarning yosh fiziologiyasi va gigiyenasi asoslari, shuningdek ta'lim jarayonida ularning xavfsizligini ta'minlash masalalari
		Stressni boshqarish, emotsional intellekt va psixologik barqarorlikni rivojlantirish usullari
		Inklyuziv ta'lim tamoyillari hamda alohida ta'lim ehtiyojiga ega talabalar bilan ishlash metodikasi
	A2.04.7- Talabalarda samarali muloqot ko'nikmalari, o'zini o'zi boshqarish va	Mehnat harakatlari: 1. Talabalar uchun intellektual, hissiy-irodaviy soha va bilish jarayonlarini rivojlantirish, xavotirni kamaytirish, muloqotdagi muammolarni hal etish hamda xulq-atvordagi qiyinchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan

	irodaviy fazilatlarini rivojlantirish	korreksion-rivojlantiruvchi mashg'ulotlar rejalari ishlab chiqish va amalga oshirish
		2.Pedagoglar, defektologlar, logopedlar va ijtimoiy pedagoglar bilan hamkorlikda ta'lim oluvchilarning ruhiy rivojlanishida aniqlangan kamchiliklar, ijtimoiylashuv va moslashuvdagi buzilishlarni psixologik-pedagogik korreksiya qilish ishlarini tashkil etish va amalga oshirish
		3.Alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan, shu jumladan iqtidorli talabalar uchun mos ta'lim muhitini yaratish bo'yicha rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish
		4.Pedagoglar bilan hamkorlikda talabalar uchun individual ta'lim yo'nalishlari (individual ta'lim trayektoriyalari)ni loyihalashtirish
		5.Pedagoglar va ota-onalar bilan hamkorlikda korreksion-rivojlantiruvchi ishlar natijalarini monitoring qilish hamda zarur tavsiyalar ishlab chiqish
		Ko'nikmalar:
		Turli turdagi ta'lim muassasalarida va ta'lim bosqichlarida talabalarning psixik rivojlanish jarayonini nazorat qilish
		Korreksion-rivojlantiruvchi ishlar dasturlarini ishlab chiqish
		Normal va me'yordan chetga chiqqan psixik hamda fiziologik rivojlanishni kuzatishning standart usullari va metodlarini qo'llash
		Talabalar bilan korreksion-rivojlantiruvchi mashg'ulotlarni o'tkazish
		Belgilangan mezonlar asosida korreksion-rivojlantiruvchi ishlarning samaradorligini baholash
		Talabalarning emotsional intellekti, muloqot madaniyati va ijtimoiy moslashuv ko'nikmalarini rivojlantirish
		Bilimlar:
		Korreksion-rivojlantiruvchi ishlarning zamonaviy nazariyalari, yo'nalishlari va amaliyoti
		Rivojlantiruvchi ishlar va psixologik yordam ko'rsatishning zamonaviy texnika hamda usullari
		Alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan turli toifadagi ta'lim oluvchilarning rivojlanish qonuniyatlari
		Korreksion-rivojlantiruvchi vazifalarni hal etishga imkon beruvchi standart metodlar va texnologiyalar, shu jumladan boshqa mutaxassislar (defektologlar, logopedlar va boshqalar) bilan hamkorlikda ishlash usullari

QCL7527		Guruh dinamikasining qonuniyatlari, guruhli korreksion-rivojlantiruvchi ishlarni tashkil etish va oʻtkazish metodlari hamda usullari
		Raqamli taʼlim texnologiyalari va sunʼiy intellekt vositalaridan psixologik xizmat faoliyatida foydalanish asoslari
		Korreksion-rivojlantiruvchi ishlar samaradorligini baholash va ularni takomillashtirish usullari hamda metodlari
	Masʼuliyat mustaqillik: va	1. Har bir talabaning psixologik xavfsizligini taʼminlash, maxfiylik tamoyillariga qatʼiy rioya qilish
		2. Talaba manfaatlarini ustuvor qoʻyish, inqirozli vaziyatlarda tezkor va toʻgʻri qaror qabul qilish
		3. Psixodiagnostika va psixologik maslahat faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish hamda uning sifati uchun javobgar boʻlish
		4. Diagnostika natijalariga asoslangan xulosa chiqarish, individual maslahat strategiyasini mustaqil ishlab chiqish
		5. Inqirozli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish va zarur chora-tadbirlarni tashabbuskorlik bilan amalga oshirish
		6. Profilaktik va rivojlantiruvchi dasturlar ishlab chiqish, psixologik trening va seminarlarni mustaqil tashkil etish
		7. Kasbiy refleksiya olib borish, oʻz faoliyatini baholash hamda superviziya va metodik maslahatlarda ishtirok etish
		8. Ilgʻor tajribalarni oʻrganish va kasbiy tajriba almashish orqali faoliyat samaradorligini mustaqil ravishda amalga oshirish
Texnik va/yoki texnologik talab:	Zamonaviy psixologik diagnostika vositalari (testlar, soʻrovnomalar, kuzatuv metodlari)dan foydalanish texnologiyalari taʼlim jarayonida qoʻllaniladigan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), jumladan kompyuter, planshet, interaktiv doska va boshqa raqamli qurilmalari psixologik xizmatni tashkil etishda qoʻllaniladigan elektron platformalar va dasturiy vositalar (masalan, elektron jurnal, monitoring tizimlari, maʼlumotlar bazalari)	

	shaxsiy va guruhiy maslahat berish, trening va korreksion ishlar olib borishda innovatsion pedagogik va psixologik texnologiyalar inklyuziv ta'lim sharoitida ishlash uchun maxsus korreksion va rivojlantiruvchi texnologiyalar kasbiy faoliyatda foydalaniladigan mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi talablari psixologik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilishda statistik va analitik dasturlardan (oddiy darajada) masofaviy (onlayn) psixologik xizmat ko'rsatish texnologiyalari (videoaloqa platformalari, masofaviy maslahat vositalari) hujjatlar bilan ishlashda zamonaviy ofis dasturlari (matn muharrirlari, jadval protsessorlari, taqdimot dasturlari)
--	--

QCL7527

QCL7527

QCL7527

QCL7527

QCL7527

QCL7527

Kasbning nomi:	Ta'lim sohasi psixologi	
Mashg'ulot nomining kodi:	26341	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	7	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Malakani baholash markazida tavsiya etilmaydi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Kamida 3-5 yil pedagogik yoki psixologik faoliyat tajribasi aniq talablar ish beruvchi tashkilot (maktab, bog'cha, OTM yoki davlat tashkiloti) va e'lon qilingan lavozim yo'riqnomasiga qarab farq qilishi mumkin.	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar	Psixologik faoliyatni kasbiy etika tamoyillari asosida amalga oshirish, ta'lim oluvchilar, pedagoglar va boshqa manfaatdor tomonlar bilan samarali muloqot o'rnatish, empatiya, bag'rikenglik va insonparvarlik tamoyillariga amal qilish. Stressli va murakkab vaziyatlarda hissiy barqarorlikni saqlash hamda oqilona qarorlar qabul qilish. Jamoada ishlash va hamkorlikni samarali tashkil etish, nizoli vaziyatlarni konstruktiv boshqarish va vositachilik ko'nikmalariga ega bo'lish. Psixologik ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash va kasbiy mas'uliyatni his etish, tashabbuskorlik, mas'uliyatlilik va o'z faoliyatini mustaqil rejalashtirish qobiliyatiga ega bo'lish. Kasbiy rivojlanishga intilish, o'z ustida muntazam ishlash va malakasini oshirib borish. O'z faoliyatini tahlil qilish (refleksiya) va kasbiy faoliyat samaradorligini baholay olish	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	magistratura; yuqori darajadagi qo'shimcha ta'lim (internatura, ordinatura, biznes boshqaruvi, davlat boshqaruvi va boshqa xalqaro tan olingan ta'lim); mutaxassislik (spetsialitet); bakalavriat va amaliy tajriba;	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	-	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	-	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:

Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
B1.7- Ta'lim oluvchilarning psixologik diagnostikasi va profilaktik faoliyatini amalga oshirish	B1.01.7- Ta'lim oluvchilarning individual- psixologik xususiyatlarini aniqlash, intellektual rivojlanish darajasini baholash	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Psixodiagnostik maqsad va vazifalarni aniqlash, yosh va individual xususiyatlarga mos metodikalarni tanlash
		2. Tadqiqot o'tkazish rejasi va jadvalini tuzish, ota-onalar va pedagoglarni jarayon haqida xabardor qilish
		3. Individual va guruh testlar o'tkazish, so'rovnoma, anketa va suhbat metodlaridan foydalanish
		4. Kuzatuv orqali xulq-atvor xususiyatlarini qayd etish, psixologik muhitni qulay va xavfsiz tashkil qilish
		5. Test natijalarini statistik va sifat jihatdan tahlil qilish, shaxsning temperament, xarakter va qiziqishlarini aniqlash
		6. Kuchli va rivojlantirish zarur bo'lgan tomonlarni belgilash, individual psixologik portret tuzish
		7. Pedagog va ota-onalar uchun amaliy tavsiyalar berish, rivojlantiruvchi yoki korreksion ishlar rejasini ishlab chiqish
		8. Talaba rivojlanishini dinamik kuzatish, zarur hollarda qayta diagnostika o'tkazish
		9. Amalga oshirilgan ishlar samaradorligini baholash, og'zaki va yozma topshiriqlar orqali tafakkurni baholash
		10. Yoshga mos intellektual rivojlanish ko'rsatkichlarini aniqlash, baholash indikatorlari, mantiqiy fikrlash, xotira, e'tibor, nutq rivojini tanlash
		11. Intellektual rivojlantirish mashg'ulotlarini tashkil etish, tafakkur, xotira va e'tiborni rivojlantiruvchi mashqlar tavsiya qilish
		Ko'nikmalar:
		Psixodiagnostik metodlarni to'g'ri tanlash va qo'llash, test, so'rovnoma, suhbat va kuzatuv usullaridan samarali foydalanish
		Olingan ma'lumotlarni aniq qayd etish, test natijalarini sifat va miqdor jihatdan tahlil qilish
		Talabalarning individual psixologik xususiyatlari, temperamenti, xakteri, qiziqishlari va motivatsiyasini baholash, mavjud muammolarni hamda ularning kelib chiqish sabablarini aniqlash
		Natijalarni yosh me'yorlari bilan solishtirish, individual psixologik portret tuzish
		Tahlil asosida asosli xulosa chiqarish, talaba bilan ishonchli aloqa o'rnatish

		Ota-ona va pedagoglarga natijalarni tushunarli yetkazish, tavsiyalarni aniq va konstruktiv shaklda berish
		Rivojlanish dinamikasini kuzatish, qayta diagnostika zaruratini aniqlash
		Rivojlantiruvchi dasturlar samaradorligini baholash, yoshga mos intellektual testlarni tanlash
		Mantiqiy, analitik va ijodiy fikrlashni baholash, e'tibor, xotira va tafakkur darajasini aniqlash
		Olingan natijalarni tizimlashtirish, me'yoriy ko'rsatkichlar bilan taqqoslash
		Kuchli va rivojlantirish zarur bo'lgan tomonlarni ajratish, intellektual rivojlantirish mashg'ulotlarini rejalashtirish
		Tafakkur va muammoli vaziyatlarni hal qilish mashqlarini ishlab chiqish, individual rivojlanish dasturini tuzish
		Empatiya va faol tinglash, maxfiylik va etik me'yorlarga rioya qilish
		Bilimlar:
		Shaxs rivojlanishining yosh bosqichlari, individual farqlar psixologiyasi
		Temperament, xarakter va qobiliyat nazariyalari, motivatsiya va ehtiyojlar tizimi
		Psixologik testlarning ilmiy asoslari, validlik va ishonchlilik tushunchalari
		Diagnostika metodlarining turlari test, suhbat, kuzatuv, so'rovnoma, natijalarni qayta ishlash va interpretatsiya qilish asoslari
		Individual psixologik portret tuzish tamoyillari, muammoli xulq va shaxsiy xususiyatlarni aniqlash mezonlari
		Ijtimoiy muhit va oilaviy omillarning ta'siri, maxfiylik tamoyillari
		Bolalar huquqlarini himoya qilish, psixologik xizmatni tashkil etishning me'yoriy asoslari, intellekt tushunchasi va uning tarkibiy qismlari, mantiqiy, analitik va ijodiy tafakkur nazariyalari
		Kognitiv rivojlanish bosqichlari, diqqat, xotira, tafakkur va nutqning psixologik mexanizmlari
		Muammoli vaziyatlarni hal qilish jarayoni, axborotni qayta ishlash jarayoni
		Talabalarning individual-psixologik xususiyatlari, temperamenti, xakteri, qiziqishlari va motivatsiyasini

B1.02.7- Emotsional holat va shaxs xususiyatlarini o'rganish, qobiliyat, qiziqish va kasbiy moyilliklarni aniqlash, diagnostik metodikalar asosida xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish		aniqlash hamda muammoli holatlarning sabab-oqibatlarini
		Ota-ona va pedagoglarga ilmiy asoslangan tavsiyalar berish, faoliyat samaradorligini baholash mezonlari
		Mehnat harakatlari:
		1. Diagnostikaning maqsad va vazifalarini aniq belgilash, ta'lim oluvchining yosh, jins, ijtimoiy muhit xususiyatlarini hisobga olish
		2. Diagnostika maqsadlariga muvofiq psixodiagnostik metodikalarni tanlash hamda emotsional va shaxsiy xususiyatlarni baholash
		3. Diagnostika o'tkazish jadvalini ishlab chiqish, maxfiylik va etik tamoyillarni tushuntirish
		4. Stress, xavotir, depressiv holat, affektiv reaksiyalarni aniqlash, emotsional fonni suhbat va kuzatuv orqali baholash
		5. Talabani o'z his-tuyg'ularini ifoda etish darajasini aniqlash
		6. Hissiy barqarorlik va impulsivlik darajasini baholash, inqirozli belgilarni erta aniqlash
		7. Temperament tipini aniqlash, xarakter xususiyatlarini o'rganish, ijtimoiy moslashuv darajasini baholash
		8. O'ziga baho berish adekvat yoki past/yuksak darajasini aniqlash, liderlik va kommunikativ salohiyatni baholash
		9. Test natijalarini miqdoriy va sifat jihatdan tahlil qilish, turli metodikalar natijalarini o'zaro solishtirish
		10. Individual psixologik portret tuzish, xavf omillarini aniqlash, ijodiy tafakkurni baholash
		11. Umumiy intellektual qobiliyatni baholash, maxsus qobiliyatlarni, matematik, lingvistik, ijodiy, texnik va boshqalar aniqlash
		12. Analitik va mantiqiy fikrlash darajasini baholash, muammoli vaziyatlarni hal qilish tezligi va samaradorligini aniqlash
		13. Talabani sevimli fan va faoliyat turlarini aniqlash, bo'sh vaqtini qanday o'tkazishini tahlil qilish
		14. Ichki motivatsiya va tashqi rag'bat omillarini aniqlash, ijtimoiy va individual qiziqishlar nisbatini baholash
		Ko'nikmalar:

		Psixodiagnostik metodikalarni to'g'ri tanlash va qo'llash, individual va guruh testlarni tashkil etish
		Suhbat va kuzatuv orqali emotsional belgilarni aniqlash, stress, xavotir, agressivlik va depressiv holatlarni farqlash
		Verbal va noverbal xatti-harakatlarni kuzatish, hissiy reaksiyalarni tahlil qilish
		Shaxsning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, muammoli omillarni aniqlash va sabablarini tushunish
		Olingan natijalarni tizimlashtirish, individual psixologik tavsif yozish, shaxsning rivojlanish imkoniyatlarini baholash
		Intellectual va maxsus qobiliyatlarni aniqlash, mantiqiy va analitik fikrlashni baholash
		Ijodiy tafakkurni aniqlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish salohiyatini baholash
		Motivatsiyani tahlil qilish, sevimli faoliyat yo'nalishlarini aniqlash, ichki va tashqi rag'bat omillarini farqlash
		Kasbiy testlar bilan ishlash, qobiliyat va qiziqish uyg'unligini tahlil qilish
		Individual kasbiy yo'l xaritasini ishlab chiqish, mehnat bozori talablari bilan moslashtirish
		Turli metodika natijalarini solishtirish, kompleks xulosa chiqarish, natijalarni yosh me'yorlari bilan taqqoslash
		Bilimlar:
		Shaxs rivojlanish bosqichlari, individual farqlar psixologiyasi
		Temperament va xarakter nazariyalari, o'zini anglash va o'ziga baho mexanizmlari
		Emotsiya va hissiyot tushunchasi, stress va xavotir mexanizmlari
		Affektiv holatlar va ularning namoyon bo'lishi, emotsional barqarorlik va impulsivlik tushunchasi
		Shaxs tuzilmasi va komponentlari, motivatsiya va ehtiyojlar nazariyasi
		Ijtimoiy moslashuv va kommunikatsiya asoslari, o'z-o'zini boshqarish mexanizmlari
		Diagnostika metodlarining turlari, testlarning validligi va ishonchliligi
		Natijalarni interpretatsiya qilish tamoyillari, individual psixologik portret tuzish asoslari
		Umumiy va maxsus qobiliyat tushunchasi, intellekt va ijodiy qobiliyat turlari, qobiliyat va iste'dod farqi

		Ichki va tashqi motivatsiya, kasbiy qiziqish turlari, shaxsning ehtiyoj va qadriyatlari tizimi
		Statistik va sifat tahlili elementlari, normativ ko'rsatkichlar bilan solishtirish, kompleks diagnostik xulosa chiqarish tamoyillari
		Individual rivojlanish dasturini tuzish, psixologik treninglar asoslari, stressni boshqarish va emotsional rivojlantirish metodlari
	B1.03.7- Talabalar o'rtasida salbiy xulq-atvor, deviant holatlar, zo'ravonlik, bullying, stress va nizolarning oldini olish hamda psixologik xavfsiz ta'lim muhitini yaratishga qaratilgan profilaktik ishlarni amalga oshirish.	Mehnat harakatlari:
		1. Psixologik iqlimni o'rganish so'rovnomalar, anonim anketa, risk guruhiga kiruvchi talaba/xodimlarni aniqlash
		2. Zo'ravonlik va bullying holatlari bo'yicha yashirin monitoring, stress va nizolar darajasini baholash
		3. "Zo'ravonlikka qarshi nol toqat" siyosatini joriy etish, ichki tartib-qoidalarini ishlab chiqish va tushuntirish
		4. Ishtirokchilar uchun trening va seminarlar o'tkazish, ishonch qutisi yoki maxfiy murojaat kanallarini tashkil etish, ota-ona va jamoatchilik bilan hamkorlikni kuchaytirish
		5. Stressni boshqarish bo'yicha treninglar, psixologik maslahat xizmatini yo'lga qo'yish.
		6. Dam olish va relaksatsiya mashg'ulotlari tashkil etish, ish yuklamasini me'yorlashtirish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish
		7. Nizolarni erta aniqlash mexanizmini joriy qilish, Mediatsiya guruhlarini tashkil etish
		8. Muomala madaniyati va empatiya ko'nikmalarini rivojlantirish, "Tinglash va tushunish" tamoyilini targ'ib qilish
		9. Huquqiy savodxonlik darslari, ijobiy xulq-atvor modellarini targ'ib qilish
		10. Ijtimoiy loyihalar va jamoaviy faoliyatni rivojlantirish, yetakchilik va mas'uliyat ko'nikmalarini shakllantirish
		11. Psixolog-pedagog-rahbariyat-ota-ona hamkorligi, profilaktika inspektori va mutaxassislar bilan hamkorlik, mahalla va jamoatchilik tashkilotlari bilan ishlash
		12. O'tkazilgan chora-tadbirlar samaradorligini baholash, takroriy monitoring o'tkazish
		Ko'nikmalar:

		Sinf va guruhning ijtimoiy-psixologik muhitini o'rganish, talabalarning xulq-atvor tarixini va individual psixologik xususiyatlarini aniqlash
		So'rovnoma, suhbat va kuzatuv metodlaridan samarali foydalanish
		Xulqdagi og'ishlarni va muammoli belgilarni muntazam kuzatish, salbiy xatti-harakatlar agressiya, tartibsizlik, bulling bo'yicha holatlarni qayd etish
		Ijtimoiy moslashuv va guruhdagi talabalarning munosabatini baholash, kuzatuv natijalarini tizimlashtirish
		Salbiy xulq-atvor sabablari va rivojlanish omillarini aniqlash, muammoli guruhlarni yoki xavf ostidagi talabalarni aniqlash
		Salbiy xatti-harakatlarni kamaytirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish, guruh ichidagi ijobiy muhitni shakllantirish bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish
		Ijtimoiy qobiliyatlarni rivojlantirish treninglari tashkil etish, ta'lim oluvchilar va ularning yaqinlari bilan individual maslahatlar o'tkazish
		Zo'ravonlik va bulling holatlarini aniqlash, sinovlar, suhbat, kuzatuv, zo'ravonlikka moyil talabalarni aniqlash
		Guruhdagi tengdoshlar o'rtasidagi munosabatlarni kuzatish, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish mashg'ulotlarini tashkil etish
		Empatiya va hamdardlikni oshirish treninglarini o'tkazish, konfliktni konstruktiv hal qilish metodlarini o'rgatish, ota-onalar va pedagoglarni profilaktika choralariga jalb qilish
		Zo'ravonlik yoki bulling holatlariga tezkor aralashish, zarur hollarda mutaxassislar, psixolog, sotsiolog, politsiya bilan hamkorlik, holatni hujjatlashtirish va tavsiyalar berish
		Bilimlar:
		Shaxsning rivojlanish bosqichlari va individual farqlari, temperament va xarakter turlari, ularning xulq-atvorga ta'siri
		Deviant xulq-atvor sabablari va turlari, agressiya, tartibsizlik, antisotsial xatti-harakatlar, psixologik va ijtimoiy omillar
		Individual, guruh va maktab kontekstidagi rivojlanish mexanizmlari, salbiy xulq-atvorni oldini olish metodlari

		Ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish asoslari, individual va guruhiiy profilaktika choralari
		Zo'ravonlik va bulling tushunchalari va turlari, zo'ravonlik sabablari, individual, guruh, ijtimoiy, zo'ravonlikning psixologik va ijtimoiy oqibatlar
		Zo'ravonlik, bulling va nizoli vaziyatlarning psixologik sabablari, belgilari hamda profilaktikasi
		Guruh ichidagi munosabatlar va tengdoshlar o'rtasidagi nizolarning psixologik xususiyatlari
		Konfliktlarni konstruktiv hal etish strategiyalari va ularning psixologik asoslari
		Ota-ona va pedagoglar bilan hamkorlikda profilaktik ishlarni tashkil etish, hujjatlashtirish va monitoring tamoyillari
		Psixodiagnostika metodlari ,so'rovnoma, suhbat, kuzatuv, natijalarni tahlil qilish va interpretatsiya qilish, individual va guruhiiy tavsiyalar ishlab chiqish asoslari
	B1.04.7- Talabalarga individual va guruhiiy maslahat berish, ota-onalar va pedagoglarga psixologik tavsiyalar berish	Mehnat harakatlari:
		1. Maslahat berish maqsadi va vazifalarini aniqlash, talabaniing psixologik holati va ehtiyojlarini o'rganish
		2. Individual maslahat metodikasi va mashg'ulot rejasi ishlab chiqish, talabaniing shaxsiy muammolarini tinglash va aniqlash
		3. Muammoni tushuntirish, sabablarini aniqlash va variantlarni taklif etish, qaror qabul qilish va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish
		4. Maslahat natijalarini qayd etish, talabaniing rivojlanish dinamikasini kuzatish
		5. Zarur hollarda keyingi maslahatlar yoki korreksion mashg'ulotlarni rejalashtirish
		6. Guruhni ijtimoiy-psixologik jihatdan tahlil qilish, maslahat mavzusi va maqsadlariga mos mashg'ulot rejasi tuzish
		7. Guruh ichida muloqotni rag'batlantirish, ijtimoiy va emotsional ko'nikmalarni rivojlantirish mashqlarini o'tkazish
		8. Konfliktni hal qilish va murosaga kelish strategiyalarini o'rgatish, guruh a'zolarining ishtiroki va faoliyatini kuzatish
		9. Mashg'ulot samaradorligini tahlil qilish, tavsiyalar va keyingi reja ishlab chiqish
		10. Loyihalar, hisobotlar va psixologik tadbirlarni tashkil etish

		Ko'nikmalar:
		Talabani individual psixologik xususiyatlarini aniqlash, muammoli vaziyat va xulq-atvorni diagnostika qilish
		Maslahat berish maqsadlarini aniqlay bilish, aktiv tinglash va empatiya ko'rsatish
		Talabaga muammo sabablarini tushuntirish, qaror qabul qilish va muammoni hal qilish bo'yicha yo'l-yo'riq berish
		Maslahat natijalarini qayd etish va tahlil qilish, talabani rivojlanish dinamikasini kuzatish
		Keyingi maslahatlar va korreksion mashg'ulotlar rejasini ishlab chiqish
		Guruhning ijtimoiy-psixologik muhitini baholash, guruhdagi nizolar va muammoli xatti-harakatlarni aniqlash
		Ijtimoiy va emotsional ko'nikmalarni rivojlantirish mashqlarini o'tkazish, konfliktni hal qilish va murosaga kelish strategiyalarini o'rgatish
		Guruh mashg'ulotlarining samaradorligini tahlil qilish, natijalarga asoslangan tavsiyalar berish, keyingi mashg'ulotlarni rejalashtirish
		Talabani rivojlanishini va xulq-atvorini baholash, muammolarni guruh va sinf kontekstida aniqlash
		Bilimlar:
		Shaxsning rivojlanish bosqichlari va individual xususiyatlari
		Temperament va xarakter turlari, ularning xulq-atvoriga ta'siri
		Shaxsning motivatsiyasi va ehtiyojlari, emotsional barqarorlik va stressni boshqarish nazariyalari
		Diagnostik metodlar va ularning turli yoshdagi talabalarga mosligi, maslahat jarayonining nazariy asoslari
		Psixologik xulosa va tavsiyalar ishlab chiqishning nazariy asoslari
		Salbiy xulq-atvor va deviant holatlar tushunchasi, muammoli xatti-harakatlarning sabablari va rivojlanish mexanizmlari
		Talabada stress va muammoli vaziyatlarni aniqlash tamoyillari, guruh rivojlanish bosqichlari va ijtimoiy dinamikasi

		Guruhdagi munosabatlar va liderlik xususiyatlarini aniqlash, tengdosh bosimi va ijtimoiy moslashuv nazariyalari
		Guruh mashg'ulotlarini rejalashtirish va tashkil etish asoslari, konfliktni hal qilish va mediatsiya nazariyasi
	Mas'uliyat va Mustaqillik:	1. Psixologik maslahat jarayonini mustaqil rejalashtirish va tashkil etish
		2. Psixologik maslahat va kasbiy yo'naltirish bo'yicha berilgan tavsiyalarning asoslanganligi uchun javobgar bo'lish
		3. Psixologik ma'lumotlar va maslahat natijalarining maxfiyligini ta'minlash
		4. Individual maslahat berishda kasbiy etika va xolislik tamoyillariga rioya qilish mas'uliyati
		5. Talabaning individual xususiyatlari, qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda mustaqil qaror qabul qilish
		6. Nizoli va murakkab vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish, professional pozitsiyani saqlash hamda qabul qilingan qarorlar va ularning natijalari uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olish
		7. O'z faoliyati natijalarini mustaqil tahlil qilish, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va faoliyatni takomillashtirish uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olish
		8. Kasbiy kompetensiyalarni muntazam rivojlantirish, malakasini oshirish va uzluksiz kasbiy rivojlanishni mustaqil tashkil etish uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olish
B2.7 – Talabalarining o'quv faoliyati, motivatsiyasi, emotsional holati va psixologik farovonligini monitoring qilish, psixologik maslahat va rivojlantiruvchi ishlarni amalga oshirish hamda metodik faoliyatni tashkil etish	B2.01.7 — Ta'lim jarayonidagi qiyinchiliklarni bartaraf etishda ko'maklashish, kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha maslahatlar berish	Mehnat harakatlari:
		1. Talabalarining o'qishdagi qiyinchiliklari va xulq-atvori bo'yicha ma'lumot to'plash
		2. Talabalarining individual-psixologik xususiyatlari, temperamenti, xarakteri va motivatsiyasini aniqlash
		3. Talabalarining o'qish jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarning sabablarini o'rganish hamda diagnostika maqsadlariga muvofiq psixodiagnostik metodikalarni tanlash va qo'llash
		4. Ta'lim jarayonidagi qiyinchiliklarni oldini olish bo'yicha reja tuzish, samarali o'qish strategiyalari va o'rganish metodlarini tavsiya qilish
		5. Talaba bilan individual suhbat o'tkazish, muammoli vaziyatlarni aniqlash, talabaning o'qishdagi qiyinchiliklarini yengish bo'yicha maslahatlar berish

QCL7527	QCL7527	6. Talabaning o'zini motivatsiyalash va o'qishga qiziqishini oshirishga yo'naltirish, individual rivojlanish monitoringini olib borish va xulosalar chiqarish
		7. Guruh mashg'ulotlari orqali talabalarning ijtimoiy va emotsional ko'nikmalarini rivojlantirish, muammoli guruhlar yoki sinflarda profilaktik mashg'ulotlar o'tkazish
		8. Guruh ichidagi hamkorlikni rag'batlantirish va ijobiy muhitni shakllantirish, konflikt va nizolarni guruh darajasida aniqlash va ularni konstruktiv hal qilish
		9. Amalga oshirilgan yordamning samaradorligini baholash, zarur hollarda korreksion chora-tadbirlar va qo'shimcha maslahatlar rejalashtirish
		10. Talabaning qobiliyat, qiziqish va shaxsiy xususiyatlarini aniqlash, kasbiy yo'naltirish testlari va so'rovnomalarni tayyorlash
		11. Talabaning kelajakdagi kasb maqsadlarini tushunish va aniqlash, mehnat bozori talablari va zamonaviy kasblar haqida ilmiy ma'lumotlarni o'rganish
		Ko'nikmalar:
		Talabaning o'qishdagi qiyinchiliklarini aniqlash va ularni turkumlash, shaxsiy xulq-atvor, temperament va motivatsiyani baholash
		Talabalarning ta'lim jarayonida duch keladigan muammolarini tahlil qilish, testlar, so'rovnomalar, kuzatuv va intervyu orqali ma'lumot yig'ish, natijalar asosida individual rivojlanish rejasini ishlab chiqish
		Talaba bilan samarali suhbat olib borish, muammolarni tinglash, muammoni aniqlash va hal qilish bo'yicha tavsiyalar berish
		Motivatsiya va o'rganish ko'nikmalarini shakllantirish, talabaning o'zini motivatsiyalash va o'qishga qiziqishini oshirish, natijalarni tahlil qilib, keyingi maslahatlarni rejalashtirish
		Guruh ichidagi ijtimoiy va emotsional ko'nikmalarni rivojlantirish, muammoli guruhlar yoki auditoriyalarda profilaktik mashg'ulotlar o'tkazish
		Konfliktlarni aniqlash va konstruktiv hal qilish, guruh a'zolari o'rtasidagi hamkorlikni rag'batlantirish
		Talabaning qobiliyat, qiziqish va shaxsiy xususiyatlarini aniqlash, kasbiy yo'naltirish testlari va so'rovnomalarni qo'llash

		Talabaning kelajakdagi kasb maqsadlarini tushunish va baholash
		Talabaning qiziqish va qobiliyatiga mos kasb-hunar variantlarini tavsiya qilish, qaror qabul qilish va kasbiy yo'l tanlash bo'yicha yo'l-yo'riq berish
		Individual yo'l xaritasini ishlab chiqish va monitoring qilish, kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha seminarlar va treninglar o'tkazish
		Guruhdagi talabalarining qiziqish va maqsadlarini aniqlash, mashg'ulot natijalarini tahlil qilish va tavsiyalar berish
		Bilimlar:
		Talabalarining o'quv motivatsiyasini shakllantirish va rivojlantirishning psixologik asoslari
		Maqsad qo'yish va unga erishish motivatsiyasini rivojlantirish usullari
		O'quv faoliyatini tashkil etish va samarali o'rganish strategiyalari
		Faol o'qitish va o'rganish metodlarining psixologik asoslari
		Xotira, diqqat va tafakkurni rivojlantirish usullari hamda mnemotexnika tamoyillari
		Raqamli ta'lim resurslari va mustaqil ta'lim imkoniyatlarining pedagogik-psixologik asoslari
		Vaqt boshqarish va o'quv faoliyatini rejalashtirish tamoyillari
		Stressni boshqarish va psixologik barqarorlikni rivojlantirish usullari
		Kasb tanlash va kasbiy rivojlanishning psixologik asoslari
		Uzluksiz ta'lim va hayot davomida o'qish konsepsiyasining mazmuni
		Mehnat harakatlari:
	B2.02.7- Psixologik qiyinchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan mashg'ulotlar tashkil etish, shaxsiy o'sish va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish	1. Stressni boshqarish texnikasi: nafas olish mashqlari, meditatsiya, vizualizatsiya, emotsiyalarni ifodalash: kundalik jurnal, hissiyotlarni ranglar yoki simvollar bilan ifodalash
		2. Muammoni yechish mashqlari: turli hayotiy vaziyatlarni rol o'ynash orqali tahlil qilish va yechim izlash
		3. Ijobiy tasavvur mashqlari: har bir kunni muvaffaqiyat bilan yakunlash va natijalarni qayd etish
		4. Shaxsiy maqsadlar belgilash: SWOT-analiz, "Men kimman va qayerga borayapman?" mashqlari, muloqot

		ko'nikmalarini rivojlantirish: aktiv tinglash, fikrni aniq ifodalash, tanqidni konstruktiv qabul qilish
		5. Ijtimoiy intellekt mashqlari: empatiya, hissiy holatlarni tushunish va munosabatlarni boshqarish
		6. Jamoaviy ish mashqlari: guruh loyihalari, muammoni birgalikda yechish, rollarni almashtirish
		7. Vaqtini boshqarish mashqlari: kunlik reja tuzish, prioritetlarni belgilash, mas'uliyatni oshirish mashqlari: kichik vazifalarni o'z vaqtida bajarish, natijalarni hisobot qilish
		8. Mas'uliyatni oshirish mashqlari: kichik vazifalarni o'z vaqtida bajarish, natijalarni hisobot qilish.
		9. Psixologik trening va mashg'ulotlarning mazmuni, shakli hamda davomiyligini belgilangan maqsad va ishtirokchilarning individual xususiyatlariga muvofiq rejalashtirish
		10. Mashg'ulot oxirida refleksiya va fikr almashish jarayoni qo'shilishi kerak
		Ko'nikmalar:
		Stressni boshqarish, emotsiyalarni boshqarish, qaror qabul qilish va muammoni yechish, ichki motivatsiyani saqlash
		Nafs nazorati mashqlari: chuqur nafas olish, meditatsiya, relaksatsiya, stressli vaziyatlarda rol o'ynash va yechim izlash
		Kundalik jurnal yozish: hissiyotlar va yutuqlarni qayd etish, ijobiy fikrlash mashqlari: har bir muvaffaqiyatsizlikdan dars olish
		Shaxsiy SWOT tahlil: kuchli va zaif tomonlarni aniqlash, guruh mashqlari: birgalikda loyiha yaratish va muammoni yechish
		Aktiv tinglash mashqlari: suhbatdoshning fikrini to'liq tushunish va qayta ifodalash, konflikt vaziyatlarini simulyatsiya qilish va konstruktiv yechim topish
		Kundalik reja tuzish va vazifalarni tartib bilan bajarish, mini-loyihalar va amaliy mashqlar orqali mas'uliyatni oshirish
		Ish joyini samarali tashkil etish, mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi talablariga qat'iy rioya etish
		Kasbiy faoliyatda empatik yondashuv va hissiy intellektidan samarali foydalanish, fikr va takliflarni aniq, mantiqiy hamda asosli tarzda ifoda etish

		Jamoada samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish, o'zaro muloqotni rivojlantirish va nizolarni konstruktiv hal etish
		Muammoli va stressli vaziyatlarni tahlil qilish hamda samarali yechimlarni ishlab chiqishga qaratilgan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish
		Pozitiv psixologiya mashqlari har kuni ijobiy natijalarni qayd etish, minnatdorlik jurnalini yuritish
		Bilimlar:
		Stressning psixologik va fiziologik mexanizmlari, uning yuzaga kelish omillari hamda shaxsning emotsional holati, xulq-atvori va kasbiy faoliyatiga ta'siri
		Qaror qabul qilish va muammoni yechish strategiyalari, ichki motivatsiya va moslashuvchanlik nazariyasi
		Stressni samarali boshqarish, psixologik barqarorlikni rivojlantirish va emotsional farovonlikni ta'minlash usullari
		Qaror qabul qilish va muammolarni hal etishning psixologik tamoyillari, tahliliy fikrlash hamda samarali yechimlarni ishlab chiqish usullari
		Kundalik hissiyotlar jurnalini yuritish, stressli vaziyatlarda roli o'yinlar simulyatsiyalar
		Ichki motivatsiyani shakllantirish va rivojlantirishning psixologik asoslari, unga ta'sir etuvchi omillar hamda uni qo'llab-quvvatlash usullari.
		Nafas olish mashqlari, relaksatsiya, meditatsiya va vizualizatsiya usullarining psixologik asoslari, ularning stressni kamaytirish va psixologik barqarorlikni mustahkamlashdagi ahamiyati
		Guruhiy muloqot va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning psixologik xususiyatlari, ularning shaxsning psixologik farovonligi va ijtimoiy moslashuviga ta'siri
	B2.03.7- Muloqot, liderlik va o'zini boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish, Iqtidorli va alohida e'tibor talab etuvchi talabalar bilan ishlash	Mehnat harakatlari:
		1. Iqtidorli va alohida e'tibor talab etuvchi talabalar bilan ishlashda mehnat odob-axloqi, intizom va mas'uliyatni shakllantirish
		2. Talabalarda samarali muloqot, liderlik va o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish, ish jarayonida ijodiy va analitik yondashuvni rivojlantirish
		3. Aktiv tinglash va fikrni aniq ifodalash, konfliktlarni konstruktiv hal etish
		4. Vazifalarni taqsimlash va nazorat qilish, guruhni motivatsiya qilish

		5. Jamoadagi ijtimoiy-psixologik munosabatlarni tahlil qilish, sog'lom muloqot muhitini shakllantirish va samarali hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish
		6. Vaqtni samarali boshqarish, ichki motivatsiyani saqlash, stress va hissiy holatlarni nazorat qilish
		7. Har bir talabaning individual ehtiyojini tushunish, moslashtirilgan mashg'ulotlar va vazifalar tayyorlash
		8. Emotsional holatni boshqarish va psixologik barqarorlikni rivojlantirishga qaratilgan amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish, shuningdek shaxsiy rivojlanish natijalarini muntazam tahlil qilish orqali ichki motivatsiyani mustahkamlash
		9. Talabalarning individual ehtiyojlari, qobiliyatlari va rivojlanish darajasini inobatga olgan holda shaxsiy tavsiyalar ishlab chiqish hamda mos rivojlantiruvchi topshiriqlarni belgilash
		10. Talabalarga rivojlantiruvchi fikr-mulohazalar berish, ularning yutuqlarini munosib baholash va o'quv hamda shaxsiy rivojlanishga bo'lgan motivatsiyasini qo'llab-quvvatlash
		Ko'nikmalar:
		Suhbatdoshni diqqat bilan tinglash, samarali muloqotni yo'lga qo'yish hamda fikr va mulohazalarni aniq, ravon va ishonchli ifoda etish
		Jamoa a'zolari bilan samarali hamkorlik qilish, o'zaro fikr almashish va muloqot jarayonida faol ishtirok etish
		Ijtimoiy va kasbiy vaziyatlarni tahlil qilish, mavjud muammolarni baholash hamda maqbul qarorlarni ishlab chiqish
		O'z nuqtai nazarini dalillar asosida himoya qilish va konstruktiv muhokamalarda faol qatnashish
		Qabul qilingan qarorlarning bajarilishi va natijalari uchun shaxsiy mas'uliyatni o'z zimmasiga olish
		Jamoaviy faoliyatni tashkil etishda tashabbuskorlik ko'rsatish, hamkorlikni rivojlantirish va yetakchilik fazilatlarini namoyon etish
		Kichik hajmdagi loyiha va tadbirlarni rejalashtirish, amalga oshirish, monitoring qilish hamda yakuniy natijalarini taqdim etish
		Muammoli vaziyatlarni tizimli tahlil qilish, muqobil yechimlarni ishlab chiqish va eng samarali variantni tanlash

		Psixoeemotsional zo'riqishni boshqarish, hissiy barqarorlikni saqlash hamda kasbiy faoliyat davomida ichki motivatsiyani rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash
		Bilimlar:
		Muloqotning asosiy tamoyillari: verbal va noverbal muloqot, aktiv tinglash va qayta ifodalash texnikalari, konfliktlarni aniqlash va konstruktiv hal etish usullari
		Guruh ichidagi kommunikatsiya va hamkorlik asoslari, savol berish va fikr almashish madaniyati
		Nazariy o'quv materiallari: kitoblar, maqolalar, videodarslar, guruh muhokamasi va seminar mashqlari
		Rol o'yinlari va konflikt simulyatsiyalari, real vaziyatlarni tahlil qilish va baholash mashqlari
		Liderlik nazariyasi: turli uslublar va yondashuvlar, qaror qabul qilish strategiyalari, guruhni motivatsiya qilish va rag'batlantirish usullari
		Vazifalarni belgilash va taqsimlash asoslari, natijalarni baholash va tahlil qilish tamoyillari
		Liderlik va jamoaviy faoliyat asoslari, guruh dinamikasi qonuniyatlari, qaror qabul qilish va muammolarni hal etish metodlari, shuningdek case-study (vaziyatli tahlil) metodining nazariy va amaliy asoslari
		Mentorlik va konstruktiv fikr-mulohaza (feedback) berishning psixologik asoslari, loyihaviy faoliyatni tashkil etish va boshqarish tamoyillari hamda jamoaviy faoliyat samaradorligini baholash usullari
		Nazariy kurslar va videodarslar: vaqtni boshqarish, stressni kamaytirish bo'yicha, kundalik reja va vazifa tuzish mashqlari
	B2.04.7- Yillik va istiqbolli ish rejasini ishlab chiqish, hisobotlar va tahliliy ma'lumotlar tayyorlash, metodik qo'llanmalar va tavsiyalar ishlab chiqish, pedagogik jamoa bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish	Mehnat harakatlari:
		1. Pedagogik faoliyatni rejalashtirish, tashkil etish va nazorat qilish, hisobot va tahliliy ma'lumotlarni tayyorlash orqali ish samaradorligini oshirish
		2. Metodik qo'llanmalar va tavsiyalar ishlab chiqish orqali ta'lim sifatini oshirish
		3. Yillik va istiqbolli ish rejasini ishlab chiqish, vazifalarni prioritetlashtirish va muddatlarni belgilash
		4. Maqsad va natijalarni aniqlash, ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va tizimlash
		5. Statistika va sifat ko'rsatkichlarini baholash, hisobot va tahliliy materiallar tayyorlash
		6. Metodik qo'llanmalar va tavsiyalar ishlab chiqish, pedagogik jarayonlarni optimallashtirish usullarini aniqlash

QCL7527		7. Pedagogik jamoa bilan samarali hamkorlik qilish, ochiq muloqot va maslahatlar tizimini yo'lga qo'yish
		8. Tajribali amaliyotlarni hujjatlashtirish va tarqatish, Jamoaviy qaror qabul qilish va tajriba almashish
		9. Yillik ish rejasi va istiqbolli reja tuzish: maqsadlar, vazifalar va muddatlarni belgilash
		10. Pedagogik jamoa bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish, ish faoliyati bo'yicha prioritetlar ro'yxatini tuzish
		Ko'nikmalar:
		Strategik rejalashtirish va maqsadlarni belgilash, ish jarayonini modul va bosqichlarga ajratish, vazifalarni ustuvorlik tartibida taqsimlash
		Resurslarni va vaqtni samarali boshqarish, rejani monitoring qilish va zaruratga qarab tuzatish
		Yillik, semestrlik va oylik ish rejalarini ishlab chiqish, vazifalarni ustuvorlik asosida rejalashtirish, bajarilish muddatlarini belgilash hamda faoliyatni samarali tashkil etish
		Reja asosida nazorat va tahlil mashqlari, rejalarni jamoa bilan muhokama qilib optimallashtirish
		Ma'lumotlarni tizimli yig'ish va qayta ishlash, jadval, diagramma va grafiklar yordamida vizualizatsiya qilish
		Ish jarayonini tahlil qilish va xulosalar chiqarish, natijalarni yozma va og'zaki shaklda taqdim etish
		Tahliliy ma'lumotlarni qayta ishlash va ulardan boshqaruv qarorlarini qabul qilishda foydalanish, oylik, choraklik va yillik hisobotlarni tayyorlash, faoliyat samaradorligini tahlil qilish, ish jarayonini monitoring qilish hamda nazorat natijalarini umumlashtirish
		Statistika va diagrammalardan foydalanish bo'yicha mashqlar, real pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va yechimlarni ishlab chiqish
		Natijalarni pedagogik jamoa bilan muhokama qilish, pedagogik resurslarni yaratish va jamoa bilan bo'lishish
		Pedagogik metodlarni tahlil qilish va baholash, metodik tavsiyalar va qo'llanmalarni yozma shaklda tayyorlash
		Ta'lim jarayoniga innovatsion va amaliy yechimlarni kiritish, o'quv jarayonini sifat nazorati bilan uyg'unlashtirish
		Bilimlar:

		Strategik rejalashtirishning nazariy va amaliy asoslari, ta'lim jarayonini modulli yondashuv hamda bosqichma-bosqich tashkil etish tamoyillari
		Vazifalarni ustuvorlik tartibida taqsimlash tamoyillari, vaqt va resurslarni boshqarish nazariyasi, rejani monitoring qilish va moslashuvchanlik asoslari
		Ta'lim faoliyatini qisqa va uzoq muddatli rejalashtirish tamoyillari, pedagogik jarayonlarni tahlil qilish, monitoring va baholash metodlari, shuningdek case-study (vaziyatli tahlil) metodidan foydalanishning nazariy va amaliy asoslar
		Reja tuzish mashqlari: yillik, semestrlik va modulli reja yaratish, rejani optimallashtirish va jamoa bilan muhokama qilish mashqlari
		Ma'lumotlarni yig'ish, tizimlashtirish va tahlil qilish usullari, statistika va vizualizatsiya asoslari, jadval, diagramma, grafik, hisobotlarni yozma va og'zaki shaklda taqdim etish tamoyillari
	Mas'uliyat mustaqillik: va	1. Psixologik diagnostika va rivojlantiruvchi faoliyatni mustaqil rejalashtirish va tashkil etish
		2. Talabalar bilan ishlashda qabul qilingan qarorlar va berilgan tavsiyalar uchun javobgar bo'lish
		3. Psixologik ma'lumotlar maxfiyligini ta'minlash
		4. Muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish
		5. Psixologik xulosa va tavsiyalarning asoslanganligi uchun mas'ul bo'lish
		6. Ota-onalar va pedagoglar bilan hamkorlikni mustaqil tashkil etish
		7. Talabalarining huquq va manfaatlarini himoya qilishda kasbiy mas'uliyatni namoyon etish
	Texnik va/yoki texnologik talab:	
	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) vositalari yordamida psixologik monitoring, diagnostika, maslahat va treninglarni tashkil etish hamda yuritish; kompyuter, noutbuk, planshet, interaktiv doska va boshqa raqamli qurilmalari psixologik ma'lumotlarni elektron shaklda yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va saqlash uchun elektron ma'lumotlar bazalari hamda statistik dasturlari elektron jurnal, hisobot va monitoring platformalari orqali psixologik xizmat hujjatlari individual va guruh psixologik maslahat, trening va rivojlantiruvchi mashg'ulotlarni zamonaviy pedagogik hamda raqamli texnologiyalar	

	inklyuziv ta'lim muhitida qo'llaniladigan adaptiv psixologik va pedagogik texnologiyalar videokonferensiya platformalari va boshqa onlayn vositalar matn muharrirlari, elektron jadvallar, taqdimot dasturlari va boshqa ofis dasturlari
--	---

QCL7527

QCL7527

QCL7527

QCL7527

QCL7527

V. Kasbiy standartning texnik ma'lumotlari

5.1. Kasbiy standartning rekvizitlari

1.	Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashining tasdiqlash hujjatlari:	Ta'lim va fan sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashining 2026-yil 22-iyuldagi 4-son bayoni
2.	Milliy malaka tizimini rivojlantirish institutining xulosasi:	KS-0182-son xulosa, 17.07.2026
3.	Kasbiy standart versiyasi va ishlab chiqilgan sanasi:	1.0-talqin, 10.07.2026
4.	Taxminiy qayta ko'rib chiqish sanasi:	10.07.2031

5.2. Kasbiy standartni ishlab chiqishga mas'ul tashkilot haqida ma'lumotlar

Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi

(tashkilot nomi)

Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi direktori

Xoliqov Abduvali Jonizoqovich

(rahbarning lavozimi, imzosi va F.I.O.)

5.3 Kasbiy standartni ishlab chiqishda ishtirok etgan tashkilot (korxona)lar to'g'risida ma'lumot

T/r	Ishlab chiquvchi to'g'risida ma'lumot	
	Ish joyi va lavozimi	Familiyasi, ismi, otasining ismi
1	Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Fan, ta'lim madaniyat va sport masalalari qo'mitasi a'zosi	Xudayarova Gulshana Berdinazarovna
2	Oliy ta'lim tashkilotlari departamenti boshlig'i	Mamanazarov Abdusamat Abdusaitovich
3	Oliy ta'lim tashkilotlarini tashkil etish va faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig'i	Axrоров Farxod Baxriddinovich
4	Kasbiy ta'lim agentligi, Ta'lim jarayonlarini tashkil etish boshqarmasi boshlig'i	Saxibov Oybek Kuyliyevich
5	Oliy ta'lim tashkilotlarini tashkil etish va faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi bosh mutaxassisi	Salimov Akmal Alimjonovich

6	Toshkent kimyo-texnologiya institutining iqtisodiy va tashkiliy masalalar bo'yicha prorektori	Qodirov Bobiromon Bekmurodovich
7	Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori	Ergashov Yoqub Suvonovich
8	Toshkent shahrida Vebster universiteti ta'lim dasturlarini amalga oshirish markazi, Ilmiy ishlar va innovatsion loyihalar bo'yicha direktor o'rinbosari	Abdullayev Ulug'bek Abdulxamidovich
9	Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti o'quv-metodik ta'minot bo'limi boshlig'i	Xaydarov Ilxom Qudratovich
10	Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi bo'lim boshlig'i	Davitov Umid Xasan o'g'li
11	Toshkent pedagogika texnikumi direktori	Tadjiyeva Mahabbat Xaydaraliyevna
12	Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi bosh mutaxassisi	Parmanova Ruxsat Tag'aymuradovna
13	Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi yetakchi mutaxassisi	Safarov Akbar Raxmanovich
14	Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi yetakchi mutaxassisi	Eshqo'ziyev Oxunjon Oybek o'g'li
15	Toshkent tibbiyot akademiyasi akademik litseyi ijrochi direktori	Ganiyev Alisher Kadiraliyevich
16	Toshkent kasb-hunar va tibbiyot texnikumi bosh ijrochi direktori	Nishanov Rustam Ibraimovich
17	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha bosh mutaxassisi, tarmoq kengashi kotibi	Abdiyev G'ayrat Ergashevich



**TA'LIM VA FAN SOHASIDA KASBIY MALAKALARNI
RIVOJLANTIRISH BO'YICHA TARMOQ KENGASHI**

KASBIY STANDART

OLIV TA'LIM TASHKILOTI PSIXOLOGI